

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE

*on the theme " **Architecture is the Abode of Time** "which will be held at
Samarkand State Architecture and Construction University*

ESTABLISHMENT OF THE CENTRAL AREAS OF RESIDENTIAL HOUSES IN THE POPULATION PUKS

Senior teacher, SamDAQU
Beknazarov Murod Boynazarovich
students, SamDAQU
a'zamov J.G', Boynazarov M.M.

Annotatsiya: Ushbu maqola aholi punktlari va jamoat markazlarini rekonstruksiya qilishda me'moriy-rejaviy tashkillashtirish muommasiga bag'ishlangan bo'lib, shaharsozlikni rejalashtirish, rivojlantirish, hududlarni aholi punktlarini va jamoat markazlarini zamonaviy talablar asosida shakllantirish, xo'jalik korxonalari hududlarini rejalashtirish va tashkil qilish loyihalarini ishlash uslublari yoritilgan.

Turar-joylarni va jamoat markazlarini shakllantirish jahon tajribasini qo'llagan holda turli misollar va loyihalarda o'z ifodasini topadi va turar joy, qurilishning rivojlanishi, qishloq infratuzilmasini yaxshilash bilan bog'liq bo'lgan loyihalarini ishlashda katta tayanch bo'ladi.

Kalit so'zlar: Shaharning bosh markazlari, Umumiy markazlar, Xizmat ko'rsatish obyektlari, Kompozitsion loyihalash, Savdo markazlari, Transport yo'llari, Jamoat markazlari, Markaz tuzilmasi, Hajmiy-fazoviy shakllantirish, Releft.

So'z boshi. Respublikamizda aholi yashash joylarini barqaror rivojlantirishning ustuvor vazifalari keyingi yillarda qishloq va shahar aholi punktlarining zamonaviy shaharsozlik ko'rinishini shakllantirish, uy-joy, madaniy va ijtimoiy-maishiy qurilishlarni tez sur'atlarda rivojlantirish, muhandislik-tarmoqlari, ko'cha va yo'l transport infratuzilmasini yangilash hamda rekonstruksiya qilish bo'yicha amalga oshirilgan kompleks chora-tadbirlar respublikamizning bir qator shaharlarining shaharsozlik tizimini sezilarli darajada yaxshilash imkonini berdi. Ayrim shaharlarini rekonstruksiya qilish ishlari jadal sur'atlarda olib borilmoqda[1].

Namunaviy loyihalar asosida yakka tartibdagi zamonaviy turar-joylar barpo etilishi natijasida aholi punktlarining qiyofasi yaxshilanib bormoqda. Keyingi yillarda aholining kam ta'minlangan qatlami uchun shahar va aholi punktlarida arzon turar-joylarni qurish ishlari yanada tezkor sur'atlarda davom etmoqda.

Shahar tipidagi aholi turar-joylarini rejaviy tuzilmasining shakllanishi va rivojlanishi istiqbollari, shaharning aholi joylashgan ishlab-chiqarish va rekratsiya hududlarini loyihalash hususiyatlari ko'rib chiqiladi.

Bu yerda e'tibor shaharsozlikka va aholi yashaydigan hududlarni loyihalashning dolzarb muammolariga qaratilgan. Ushbu material amaldagi me'yoriy qo'llanmalar asosida hozirgi davr shaharsozlik qurilishi, amaliyoti, shahar va aholi punktlarini e'tiborga olgan holda yoritildi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi.

Natijalar joylarida qurilish ishlarini olib borish va rekonstruksiya qilish jarayonida, loyiha va qurilish-montaj

ishlarini amalga oshirish davomida belgilangan shaharsozlik, qoida va me'yorlari qo'pol ravishda buzilayotgan holatlar mavjudligini ko'rsatmoqda.

Ayrim joylarda O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi hamda davlat boshqaruvi organlari o'rtasida hududlarni rivojlantirishda shaharsozlik jarayonini boshqarish borasida vazifalar va vakolatlarning aniq chegaralari mavjud emasligi shaharlar hamda boshqa aholi punktlarini rejali rivojlantirish va kompleks qurish hamda izchil rivojlantirish borasida shoshilinch, ba'zida esa noto'g'ri loyihaviy-rejali qarorlar chiqarilishiga sabab bo'lmoqda.

Hozirgi zamon loyihalashtirish usullarini, amaliy dasturiy mahsulotlarni, ilm-fan, shaharsozlik va arxitektura yutuqlarini hayotga joriy etish, zamon talablariga javob beradigan, murakkab hamda yuqori toifali loyiha-qidiruv ishlarini amalga oshirish imkoniyatiga ega istiqbolli yoshlarni jalb etish uchun yetarli malakasi bo'lmagan loyiha tashkilotlari faoliyatini qayta ko'rib chiqish talab etilmoqda.

Hozirgi kunda shaharsozlik sohasiga oid asosiy masalalar va muhim muammolarni hal etish g'oyat dolzarb vazifa ekani inobatga olinib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmon hamda "O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror qabul qilindi.

Qqabul qilingan Farmon, avvalo, O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qumitasining arxitektura va shaharsozlik sohasida yagona davlat va ilmiy-texnikaviy siyosatni olib borish jarayonidagi rolini oshirishga qaratilgan bo'lib, uning faoliyatidagi asosiy vazifalar va yo'nalishlarni belgilab beradi. Jumladan: shaharsozlik va shaharsozlik faoliyatiga oid me'yoriy-huquqiy bazani muntazam ravishda takomillashtirib va yangilab borish; loyihalash ishlari va qurilish faoliyatini muvofiqlashtirish, qurilishda ishlab chiqarish jarayoniga ilg'or texnologiyalar jalb qilinishini tashkil etish; bozor munosabatlarini yanada chuqurlashtirish va kapital qurilishda davlat haridlarini amalga oshirish tizimini yanada takomillashtirish; arxitektura, loyihalash va qurilish sohalari uchun malakali kadrlarni tayyorlashni ta'minlash[2].

Respublikada qishloq joylarni barqaror rivojlantirish ustuvor vazifalar qatoriga kiritilgan bo'lsada, ushbu masalani ilmiy jihatdan asoslash, uni amalga oshirish mexanizmlarini yanada takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot doirasini kengaytirish va amaliy ahamiyatga molik takliflar ishlab chiqish lozim.

Xorij olimlari tomonidan bayon etilgan qishloq joylarini barqaror rivojlanish konsepsiyalari va uning asosiy tamoyilda turlicha yondoshuvlar mavjud bo'lib, yagona bir tushuncha va kelishuv yo'qligini ko'rsatmoqda. Barqaror rivojlanish konsepsiyasidagi yangicha qarashlar turli nazariya va ilmiy maktablar yo'nalishlarini o'zida aks ettirgan holda, hozirgi kunda dunyoda bo'layotgan murakkab jarayonlarni chuqur tahlil qilib, insoniyat sivilizatsiyasiga ta'sir ko'rsatayotgan turli omillarga baho berishdan iborat.

Ilmiy ishda ko'tarilgan mavzu arxitektura nazariyasi va tarixi, shaharsozlik, landshaft arxitekturasi bilan bog'liq ilmiy adabiyotlarda u yoki bu darajada o'rganilgan bo'lsa-da, alohida ilmiy ish ko'rinishidagi tadqiqot sifatida shu choqqacha ilmiy jihatdan keng qamrovli o'rganilmagan. Biz o'rganayotgan sohaga taaluqli ilmiy ishlar I.S. Shukurov, A.S. Uralov, K.D. Raximov, D.U. Isamuxamedova va bir qator olimlarning ishlarida uchraydi[3].

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. bugungi kunda shahar usulidagi aholi turar-joy hududlari markazlarini qayta qurishda bunyod etiladigan sifatiga qo'yiladigan talablar ham ortib bormoqda. Jumladan, iqtisodiy va sotsial-demografik, me'moriy-badiiy va tabiiy-iqlim sharoitlarini hisobga olish bilan bog'liq bo'lgan hududlarining shakllanishidagi o'ziga xos zamonaviy omillar sifatida ro'yobga chiqmoqda[4].

Jamoat markazlari hududlaridan amalda foydalanish usullari.

Ta'kidlab o'tish kerakki, so'ngi yillarda hukumatimizning g'amxo'rliqi tufayli aholining turmush sharoiti va madaniy saviyasi kundan-kunga oshib bormoqda. Shu sababli ularning turar-joylar, savdo transport va bog' hududlaridagi va umuman yashash muhitiga bo'lgan badiiy estetik talablarini takomillashtirish, ko'p qirrali

bo'lib bormoqda.

Bunday sharoitda shahar ko'rinishidagi aholi turar-joy hududlari markazlarini rivojlanishi va shahardagi madaniy o'zgarishlar – sotsial, iqtisodiy, me'morchilik va landshaft arxitekturasini sohalaridagi yangi yirik ijtimoiy ko'rinish bo'lib yuzaga chiqmoqda[5].

Tadqiqot natijalari bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy va amaliy taklif natijalaridan darslik yoki o'quv qo'llanmalarining shahar ko'rinishidagi aholi turar-joy hududlari markazlarini qayta qurish qismida foydalanish mumkin.

Aholi turar-joy hududlarini rejaviy tuzilishining shakllanishi va rivojlanish istiqbollari, shaharlarning aholi joylashgan ishlab-chiqarish va qayta quriladigan hududlarini loyihalash usullari ko'rib chiqiladi.

Shaharsozlikka va aholi yashash hududlarini loyihalashning dolzarb muammolariga qaratilgan. Amaldagi me'yoriy hujjatlar asosida hozirgi davr shaharsozligini, shahar va qishloqlarni e'tiborga olgan holda yoritildi.

Aholi punktlari va jamoat markazlarini shakllantirish jahon tajribasini qo'llagan holda turli misollar va loyihalarda o'z ifodasini topadi, shuningdek qurilishning rivojlanishi, qishloq infratuzilmasini yaxshilash bilan bog'liq bo'lgan bosh rejalarni ishlab chiqishda xo'jalik korxonalari hududlarini rejalashtirish loyihalarini ishlashda katta tayanch bo'ladi.

Shu bilan markaziy maydonlarni shakllantirish, jamoat markazlarida maktabgacha va maktab obyektlari, tibbiy muassasalar, madaniy-ijtimoiy, barcha turdagi xizmat ko'rsatish tizimini shakllantirish, savdo-maishiy xizmat ko'rsatish obyektlarini joylashtirish, sport inshootlarini, markazlarni ko'kalamzorlashtirish va dam olish maskanlarini, transport sxemalarini qishloqlararo jamoat markazlarini shakllantirishda katta omil bo'la oladi[5].

Shuningdek, ma'muriy xo'jalik va kommunal muassasalarini, sog'lomlashtirish muassasalarini tashkil etish, madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, atrof muhitni muhofaza qilish, shaharsozlik ekologiya va tabiiy zahiralardan to'g'ri foydalanish, turar joy fondidan ijtimoiy va muhandislik infratuzilmalaridan oqilona foydalanishga yordam beradi.

Har bir aholi punktlarini jamoat markazlarini rivojlantirish istiqbollarning hal qilinishi asosi hisoblangan kompleks shaharsozlik xujjatlari ahamiyatlidir.

Respublikada qishloq joylarni barqaror rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan, so'ngi yillarda shahar va qishloq aholi punktlarining zamonaviy me'moriy qiyofasini shakllantirish, muhandislik-kommunikatsiya va yo'l va transport infratuzilmasini yaxshilash va qayta qurish bo'yicha amalga oshirilgan kompleks chora-tadbirlar Toshkent, Andijon, Farg'ona, va Respublikamizning bir qator shaharlarining shaharsozlik loyihalashtirish tizimini sezilarli darajada yaxshilash imkonini beradi. Bir qator shahrlarimizda esa (Guliston, Termiz, Qashqadaryo va Jizzax) qayta qurish ishlari olib borilmoqda.

Shaharsozlikning namunaviy loyihalarda zamonaviy turar-joylar barpo etilishi, qishloq aholi punktlarining qiyofasini yaxshilashiga olib kelmoqda. So'ngi yillarda aholining yordamga muhtoj qatlami uchun shaharlar va qishloq aholi punktlarida arzon uy-joylarni qurish ishlari yanada tez sur'atlarda davom ettirilmoqda.

Shaharsozlikning zamonaviy loyihalashtirish usullarini, amaliy dasturlarni, ilm-fan, arxitektura yutuqlarini hayotga tatbiq etish, zamon talablariga javob beradigan, murakkab hamda yuqori texnologiyali loyiha-qidiruv ishlarni amalga oshirish imkoniyatiga ega yoshlarni jalb etish uchun yetarli qiziqishi bo'lmagan loyiha tashkilotlari faoliyatini ko'rib chiqish talab etilmoqda.

Shaharsozlik sohasiga oid asosiy masalalar va muhim muammolarni hal etish nihoyatda dolzarb vazifa ekanligini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan "O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmon va "O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlar qabul qilindi.

Xususan, qabul qilingan Farmonda, O‘zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligining shaharsozlik sohasida yagona davlat va ilmiy-texnik siyosatni olib borish jarayonidagi rolini oshirishga qaratilgan, uning faoliyatidagi asosiy vazifalar va yo‘nalishlarni belgilab beradi. Jumladan: shaharsozlik, shaharsozlik faoliyatiga doir me‘yoriy-huquqiy bazani muntazam ravishda takomillashtirish va yangilab borish; loyihalash ishlari va qurilish faoliyatini yaxshilash, qurilishda ishlab chiqarish jarayoniga ilg‘or texnologiyalar jalb qilinishini taminlash; arxitektura – loyihalash, qurilish sohalari uchun malakali kadrlarni tayyorlashni ta‘minlash.

Respublikada qishloq joylarni barqaror rivojlantirish ustuvor vazifalar qatoriga kiritilgan, ushbu masalani ilmiy jihatdan asoslash, uni amalga oshirishni yanada takomillashtirishga qaratilgan ilmiy–tadqiqot doirasini kengaytirish va amaliy takliflar ishlab chiqish lozim.

Olimlar tomonidan bayon etilgan qishloq joylarini barqaror rivojlanish va uning asosiy tamoyilda turlicha yondoshuvlar mavjud, yagona bir tushuncha va kelishuv yo‘qligini ko‘rsatmoqda. Barqaror rivojlanish konsepsiyasidagi yangi qarashlar turli nazariya va ilmiy maktablar yo‘nalishlarni o‘zida namoyon etgan holda, dunyoda bo‘layotgan murakkab jarayonlarni chuqur tahlil qilib, insoniyat sivilizatsiyasiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatayotgan turli omillarga baho berishdan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasida qishloq joylarni barqaror rivojlantirishda 2009-yilda ishlab chiqilgan va amalga oshirilgan “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi” dasturi katta turtki bo‘ldi. Bu dasturda belgilangan chora-tadbirlar juda keng ko‘lamli va asosiy e‘tibor qishloq infratuzilmasi, qishloq tumanlarida elektr energiyasi ta‘minoti, kommunal-maishiy xizmat, suv va gaz, ta‘minoti tizimlarini rivojlantirishga qaratilgandir. Qishloq xo‘jaligini tarqqiy ettirishi shu jumladan, fermerlarni tayyorlash va malakasini oshirish, qishloqda tadbirkorlikni oziq-ovqat mahsulotlari ishlab-chiqarishga alohida e‘tibor bergan holda rivojlantirish, shuningdek, sog‘liqni saqlash va ta‘lim masalalariga ham muhim o‘rin ajratilgan. Mavjud texnologiyalarni takomillashtirish, oziq-ovqat sanoatida yuqori texnologiyalardan keng foydalanishga katta ahamiyat berildi va shu bilan birga, olimlar va mutaxassislar oldida qishloq joylarni barqaror rivojlantirishning nazariy va uslubiy asoslarini takomillashtirish va uni o‘ziga xos xususiyatlarini ilmiy jihatdan tahlil etish masalalari ko‘ndalang bo‘lib turibdi.

Maqsad - qishloq xo‘jaligi sohasida ishlab-chiqarish samaradorligini sezilarli darajada oshirish, qishloqda yashayotgan xalqimizning turmush darajasini ko‘tarish va ular uchun munosib sharoitlarni yaratishdan iborat bo‘lmog‘i kerak.

Aholi turmush tarzini rivojlantirish uchun sanoatni qishloq hududiga olib kelish kerak, ishlab-chiqarish hamda ijtimoiy infratuzilmasini yanada rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan zamonaviy korxonalarni barpo etish, qishloqda, avvalambor yoshlar o‘rtasida bandlik o‘shirishni ta‘minlash, qishloq aholisining daromadlari va turmush sifatini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning keng kompleks amalga oshirish maqsadida bir qator samarali ishlar amalga oshirildi. Shu jumladan, qishloq qiyofasini sifat darajasida yaxshilash, rivojlanish va arxitektura - reja asosida qurilish bosh sxemalariga asoslanib qishloq aholi punktlarini qurish, qishloqdagi turar-joy va ijtimoiy soha ob‘ektlarini namunaviy loyihalar bo‘yicha barpo etilishini nazarda tutuvchi qishloq aholi punktlarining shaharsozlik rejalashtirilishini tashkil etish va qurilishini loyihalashtirish tizimini tubdan takomillashtirish olib borilmoqda[5].

Xulosa. Qishloqlar aholini hududi-ijtimoiy tashkil etishning eng qadimiy va asosiy shakllaridan biri bo‘lib, ularning bajaradigan funksiyasi shaharlarga qaraganda unchalik boy emas. Qishloqlar qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan, qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashmagan va aralash vazifali guruhlariga ajratiladi. Qishloqlarning ko‘pchiligi bevosita qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan turi hisoblanadi.

Qishloqlar shaharlarga qaraganda tabiiy sharoitga ancha sezgirdir, ularning shakllanishi va rivojlanishi yer usti tuzilishi, joyning iqlimiy resurslariga, suv, tuproq va boshqa tabiiy geografik komponentlarga bog‘liq bo‘ladi.

Bu sharoitlar qishloq xo‘jaligining tarmoqlari va ixtisoslashuvini, hududiy tashkil etilishini belgilab beradi, bu

esa, o'z navbatida, qishloqlar to'ri va turi, joylanishiga ta'sir etadi.

Qishloqlar taraqqiyoti va farovonligi, eng avvalo, ularning iqtisodiy negizi, ya'ni agroiqtisodiyoti tizimidagi islohatlarga, fermer va dehqon xo'jaliklarining faoliyatiga, kasanachilik, milliy hunarmandchilik, kichik biznes kabi sohalarning rivojlanishiga asoslanadi. Iqtisodiyot tarmoqlari qatorida ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma, transport, aholiga turli xil xizmat ko'rsatish - savdo, ta'lim, sog'liqni saqlash, moliya va boshqa servis sohasining rivojlanib borishi, qishloq joylarga sanoatning olib kirilishi, investitsiya muhitining yaxshilanishi natijasida, aholi bandligi va uning turmush farovonligini yaxshilashga xizmat qiladi.

Tabiiyki bu imkoniyatlar turli xil iqlim-relef sharoitga va xo'jalik yo'nalishiga ega bo'lgan hududlarda bir xil emas. Aholi zich, aholi punktlari katta bo'lgan hududlarda yoki qishloqlar kichik va tarqoq, bir-biridan uzoq masofada o'rnatilgan cho'l va tog'li mintaqalarda "Qishloq" dasturida ko'zda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish o'ziga hos xususiyatlarga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boynazarov, Mehroj; Boynazarovich, Beknazarov Murod; Muysinovich, Madiev Farrux; „AQLLI SHAHAR VA INNOVATSION G'OYALAR,"JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE", 780-758, 2023.
2. Boynazarov, Mehroj; Boynazarovich, Beknazarov Murad; Muysinovich, Madiev Farrukh; SMART CITY AND INNOVATIVE IDEAS, "JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE", 332-337, 2023.
3. Шукуров ИС; Пайкан В; Бекназаров М; Ветровой режим жилой застройки котловинного рельефа г. Кабула, БСТ: Бюллетень строительной техники, 3,56-58, 2018, Общество с ограниченной ответственностью Издательство БСТ
4. Бекназаров МБ; Бойназаров ММ; ПРОЕКТИРОВАНИЕ ВОДОСТОКОВ В ЖИЛЫХ РАЙОНАХ,CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN, 571-575,023.
5. Худойбердиев А; Бекназаров МБ; Санаева НП; Ачилдиев, РМ, ИНЖЕНЕРЛИК ТАРМОҚЛАРИ ҚУРИЛИШИ СТРОИТЕЛЬСТВО ИНЖЕНЕРНЫХ СЕТЕЙ, МЕ'MORCHILIK va QURILISH MUAMMOLARI 61, 2015.